

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li

Termiz davlat universiteti

“Musiqqa ta’limi” kafedrasida o’qituvchisi

Bekzodbahromovich1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Umumta’lim maktablarida o’zbek milliy cholg’ulari ijrochiligini yo’lga qo’yish masalalari” mavzusi asosida milliy cholg’ularimizni yosh avlodlarga o’rgatish yo’lida yuzaga kelayotgan muammolar hamda yechimlar qisqacha yoritildi.

Kalit so’zlar: musiqa, san’at, to’garak, komponent, integratsiya, maktab, cholg’u, san’at, ijro, afg’on rubobi, qashqar rubobi, prima rubobi, g’ijjak, nay, chang, qonun, dutor.

Аннотация. В данной статье обобщены проблемы и решения по обучению подрастающего поколения на наших национальных инструментах по теме «Вопросы становления игры на узбекских национальных инструментах в общеобразовательных школах».

Ключевые слова: музыка, искусство, кружок, компонент, интеграция, школа, инструмент, искусство, исполнение, афган рубоби, кашгар рубоби, прима рубоби, гиджак, най, чанг, право, дутор.

Annotation. This article summarizes the problems and solutions to the teaching of our national instruments to the younger generation on the topic "Issues of establishing the performance of Uzbek national instruments in secondary schools."

Keywords: music, art, circle, component, integration, school, instrument, art, performance, afghan rubobi, kashgar rubobi, prima rubobi, gijjak, nay, chang, law, dutor.

Umumiy o’rta talim boshlang’ich talimning mantiqiy davomi bo’lsa ham, tarkibiy sifatiga va o’qitish uslubiga ko’ra farq qiladi. Umumiy o’rta talim ishtirokchining ijtimoiy mavqeini belgilab olishga bo’lgan ishtiyoq, qiziqish va

qobiliyatlarini, uning shaxs bo'lib shakllanishini taminlaydi. O'quvchi o'rta maktabda fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlarni oladi. Talim jarayonida keng dunyoqarash shakllanishi va ijodiy fikrlash qobiliyati paydo bo'ladi. Xalqning boy ma'naviy va madaniy me'rosi bilan tanishtirib borish orqali bolada atrofdagi olamga bo'lgan g'amxo'rlik hissi uyg'otib boriladi. O'rta maktab o'quvchilar uchun maktab fanlarini mustaqil o'rganishga keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'rta talimning tarkibiy qismiga majburiy va qo'shimcha komponentlar kiradi. Qo'shimcha komponent ishtirokchining talab va qobiliyatidan, maktabning moddiy-texnik va kadrlar bilan taminlanganlik darajasidan, hududning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qo'shimcha o'quv vazifalar hajmi Xalq Ta'lim Vazirligi tomonidan belgilangan normativlar asosida taqsimlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim qatnab o'qish va bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bitiruvchilarga davlat attestatlari, alohida muvoffaqiyatlarga erishganlarga esa imtiyozli attestatlar beriladi.¹

Zeroki muhtaram prezidentimiz Namangandagi bo'lgan tashriflarida: "O'zligimizni anglash nuqtai nazaridan madaniyat sohasiga urg'u berib, umaman olganda attestat olishni hammamiz o'rganganmiz masalan: fizika, matematika bo'yicha baho bo'ladi. Endi attestatda har bir maktabni 11-sinfini tugatgan bolalarimizni bitta cholg'u asbobini o'rgangan degan bahosi qo'yiladi."²

Muhtaram Prezidentimizning ushbu nutqlaridan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" darslarini samaradorligini oshirish hamda integrativ dars o'tish jarayonlariga alohida urg'u berish joizdir. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarida anchagina ishlar olib borilmoqda.

¹ Umumiy o'rta ta'lim tushunchasi. Internet saytlari: Info.ziyonet.uz

² O'zbekiston Respublikasi prezidentining Namangan viloyatiga tashriflari yakunidagi majlisda madaniyat sohasiga e'tibor qaratish bo'yicha nutqlaridan. <https://t.me/madaniyatvazirligi>.

Ammo bu ishlarning natijalari qoniqarli darajada deb bo'lmaydi. Oddiy misol sifatida musiqa madaniyati darslariga ajratilgan soatlar kamligi ham o'quvchi-yoshlar musiqiy ta'limni to'liq egallay olmayotganligiga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Bu borada Yevropa davlatlari bilan taqqosalaydigan bo'lsak:

Rossiya Federatsiyasida musiqa madaniyati darslariga ajratilgan soat 34 soatni tashkil etsa, bizda musiqa madaniyati darslariga ajratilgan soat 7 soatni tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa darsi uchun ajratilgan soatlar boshqa fanlarga nisbatan ancha kam. Musiqa darslariga ajratilgan soatlar kamligi sababli o'qituvchi o'rgatgan bir asarni mustahkamlash imkoni mavjud emas. Birinchi bitta mavzu o'tilsa ertangi darsda ikkinchi mavzuga o'tiladi. Ammo o'quvchi hali birinchi mavzuni to'liq o'z ongiga singdirib uni mustahkamlashga ulgurmagan bo'ladi. Soat kamligi esa bitta o'rganilayotgan asarni to'liqligicha o'rganmasdan turib keyingi asar ustida ishlashga majbur qiladi.

Misol o'rnida O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori bo'lmish umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy, metadalogiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish to'g'risidagi ishlab chiqilgan dasturda ham kuzatish mumkinki musiqa darslariga ajratilgan soatlar boshqa fanlarga nisbatan farq qiladi.³

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi 02.02.2022-yildagi 112-sonli qaroriga 1-ilovasida umumta'lim maktablarida xar bir

³ Тошкент ш., 2017 йил 6 апрель, 187-сон Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон қарори.

o'quvchining milliy cholg'ularimizdan birini qay darajada o'rganganlik bahosi uning shahodatnomasida aks ettirilishi va ushbu cholg'ularning ro'yxati keltirilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslarini hamda cholg'u ijrochiligini rivojlantirish uchun biz avvalambor dars soatlariga urg'u berishimiz darkor deb o'ylayman. Dars soatlarini yaratish orqali biz musiqa madaniyati darslarining repertuarlarini ham boyitishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi tahminiy repertuarlar, ijro dasturlari o'quvchilarning yoshiga mos kelmaydi va ularning musiqani to'g'ri anglay bilish darajasiga putur yetkazadi. Maktabdan tashqari musiqiy to'garaklar mavjud bo'lib, ularning faoliyati arzigulik bir nuqtaga borib yetganicha yo'q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini integratsiyalashda anchagina muammolar mavjud:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darsliklaridagi o'quvchi-yoshlar uchun berilgan ijro dasturlari sinfiga va yoshiga mos emas;
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida cholg'u asboblari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi ya'ni moddiy texnik bazaga kiritilmaganligi;
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha videodarsliklar elektron tizimi shakllanmaganligi;
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" darslarini o'tishda yetarli malakaga ega bo'lgan yetuk pedagog va mutaxasislarning jalb etilmaganligi.

Albatta yuqoridagi kamchilik va muammolarni yechishda biron-bir natijaga tezda erishish mushkul. Bu nuqsonlarni yechimi sifatida quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati repertuarlariga alohida e'tibor qaratish lozim;

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'z kasbining yetakchi muataxasisi hisoblanmish pedagog hamda ijrochilar orqali online va offline master-klass darslarini tashkillashtirish;

3. Cholg'u ijrochiligi turlari bo'yicha video darsliklar hamda elektron darsliklar majmuasini yaratish;

4. Musiqa madaniyati darslarining o'qitilishida konsepsiya ishlab chiqilishi lozim;

5. Maktabdan tashqari musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida ta'lim berayotgan mutaxasis o'qituvchilarni jalb qilish hamda bolalarni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'zlari xoxlagan cholg'uni o'rganishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim;

6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati hamda san'at sohasida alohida iqtidor sohib hamda sohibalarini bolalar musiqa maktablariga jalb etish.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- Har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

- Fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.

- Sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin. Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqiyot haqidagi ilmiy bilimlar, o'quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtai nazardan juda muhim bo'lib,

yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarflik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlari integrasiyasiga moyillik yuqori turadi. Maktab umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmaligi o'quvchilar bilimini to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarda qiyinlik uyg'otadi. Olimlarimizning fikricha, integrasiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida integrasiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta'lim sistemasiga integrasiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Integrasiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda darslarning integrasion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fiklar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integrasiya muammosi hamon olishlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'qitish jarayonida integrasiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogi tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошкент ш., 2017 йил 6 апрель, 187-сон Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон қарори.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Namangan viloyatiga tashriflari yakunidagi majlisda madaniyat sohasiga e'tibor qaratish bo'yicha nutqlaridan. <https://t.me/madaniyatvazirligi>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori, <https://lex.uz/>
4. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12 (80), 83-87.
5. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401>
6. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.
7. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS.
8. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, 3(4), 776-780.
9. [URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi](https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi).
10. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
11. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>